

**Journal of Social Research in Uzbekistan****JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:  
<https://topjournals.uz/index.php/jsru>

**RELIGIOUS EDUCATION IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE AND ITS LEGAL FOUNDATIONS**

*Abdugofur Niyazqulov*

*Master's student*

*University of Exact and Social Sciences*

*Tashkent, Uzbekistan*

**ABOUT ARTICLE**

**Key words:** Religion, education, religious education, law, Constitution, Freedom of Conscience and religious organizations, religious organizations.

**Received:** 19.05.25

**Accepted:** 21.05.25

**Published:** 23.05.25

**Abstract:** Religious educational institutions play an important role in preserving and promoting religious values and teachings in many countries, including Uzbekistan. In recent years, attention has been increasing in Uzbekistan to the legal status of such institutions, as the country continues to undergo serious political and social changes. This article reveals the legal framework for organizing religious education in Uzbekistan and conducting educational processes in it.

**MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKİSTONDA DINIY TA'LIM VA UNİNG HUQUQİY ASOSLARI**

*Abdug'ofur Niyazkulov*

*Magistratura talabasi*

*Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

**MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** Din, ta'lim, diniy ta'lim, huquq, Konstitutsiya, Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar, diniy tashkilotlar.

**Annotatsiya:** Diniy ta'lim muassasalarini ko'plab mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham diniy qadriyatlar va ta'limatlarni asrabavaylash va targ'ib etishda muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda O'zbekistonda bunday muassasalarining huquqiy maqomiga e'tibor kuchaymoqda, chunki mamlakatda jiddiy siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar davom etmoqda. Ushbu maqolada O'zbekistonda diniy ta'limi tashkil etish va unda ta'lim olish jarayonlarini olib borishning huququy asoslari ochib berilgan

## РЕЛИГИОЗНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ И ЕГО ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ

**Абдугофур Ниязкулов**

студент магистратуры

Университет точных и социальных наук

Ташкент, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Религия, образование, религиозное образование, закон, Конституция, свобода совести и религиозные организации, религиозные организации.

**Аннотация:** Религиозные учебные заведения играют важную роль в сохранении и пропаганде религиозных ценностей и учений во многих странах, в том числе и в Узбекистане. В последние годы в Узбекистане усиливается внимание к правовому статусу таких учреждений, поскольку в стране продолжают происходить серьезные политические и социальные изменения. В данной статье раскрываются правовые основы организации религиозного образования в Узбекистане и проведения в нем образовательных процессов.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimi dindan ajratilgan bo‘lib, ta’lim tizimining o‘quv dasturlariga diniy fanlar kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining dunyoviy ta’lim olish huquqi ularning dinga bo‘lgan munosabatidan qat’i nazar ta’milanadi. Diniy ta’lim muassasalari, tashkilot va birlashmalarining davlatdan ajratilganligi ularning fuqarolik jamiyatida alohida institut sifatida mayjudligini anglatadi. Shunday ekan, ularning davlat va boshqa fuqarolik jamiyati institatlari bilan o‘zaro munosabatlardagi o‘rni va aloqalarini tadqiq etish, o‘rganish va aniqlash lozim bo‘ladi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, dunyoviy davlat sifatida, din davlatdan ajratilgan bo‘lsada, lekin dindor jamiyatdan ajratilmaganligi bois barcha dinlar, shu jumladan, islam diniga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Davlat va diniy tashkilotlar o‘rtasidagi munosabat to‘g‘ri yo‘lga qo‘yildi. Ya’ni vijdon erkinligiga e’tibor qaratildi. Bu BMT ustavi hamda 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasiga mos tushadi.

Din va dunyoviy davlat orasidagi munosabat haqida gap ketar ekan, eng avvalo, dinnning davlatdan ajratilishi tamoyili uning asosini tashkil etishini ta’kidlash zarur. Bu haqda Konstitutsiyamizning 61-moddasida shunday deyiladi: “Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi”. Mazkur moddada muhim qoidalar mustahkamlab qo‘yilgan. Avvalo diniy tashkilotlar qaysi konfessiyaga taalluqligidan qat’i nazar, bir xil huquqiy maydonda faoliyat olib boradi. Qolaversa, diniy birlashmalar faoliyatini tashkil etish ularning ichki ishi hisoblanadi va davlat nazoratidan xolidir.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishgandan milliy va diniy qadriyatlarni qayta tiklashga harakat qildi. Jumladan, 1991-yil 11-aprel – O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining Farmoniga asosan “Ramazon hayiti” dam olish kuni deb e’lon qilindi. 1991-yil 14-iyun – O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. 1991-yil 20-iyun – O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining Farmoniga binoan “Qurbon hayiti” dam olish kuni deb e’lon qilindi. 1991-yil iyul – Buyuk yurtdoshlarimiz, muhaddislar sulton Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil al-Buxoriyning islomda Qur’ondan keyingi ikkinchi kitob hisoblangan “al-Jomi’ as-sahih” (Ishonarli to`plam) asarining birinchi jildi ilk bor Zokirjon Ismoil tomonidan o‘zbek tiliga o‘girildi va Qomuslar Bosh tahririyatitomonidan 200 ming nusxada chop etildi.

Shuningdek, 1992-yili Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi din ishlari bo‘yicha qo‘mita tashkil etish to‘g‘risida”gi, “Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish haqida”gi qarorlari qabul qilindi hamda 1995-yil “Az-Zamaxshariyning 920 yilligi va Najmiddin Kubroning 850 yilligi o‘tkazish” bo‘yicha farmoyish chiqди. 1997-yil “Imom al-Buxoriy tavalluduning 1225 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Bunga yaqqol misol sifatida Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgarishlarni keltirsak bo‘ladi. O‘zbekiston dunyoviy davlat hisoblansa ham, unda ko‘plab diniy ta’lim muassasalar mavjud. Ularning huquqiy asosi sifatida esa eng avvalo Konstitutsianing 75-moddasini ko‘rsatsak bo‘ladi. Unga ko‘ra: “Diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatiga aralashmaydi. Davlat qonunda belgilangan tartibda faoliyat ko‘rsatayotgan diniy tashkilotlar faoliyatining erkinligini kafolatlaydi”.

O‘zbekistonda ham boshqa davlatlar qatori diniy ta’lim muassasalarini tartibga soluvchi o‘ziga xos qonun va me’yoriy hujjatlar mavjud. O‘zbekiston hukumati mamlakatdagi diniy faoliyatni, jumladan, diniy ta’lim muassasalari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish bo‘yicha turli chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Ushbu chora-tadbirlar bunday muassasalarning qonun doirasida faoliyat yuritishini, ekstremistik g‘oyalar va faoliyatni targib qilmasligini ta“minlashga qaratilgan.

O‘zbekistonda diniy ta’lim muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi asosiy qonunlardan biri “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonundir. 1998-yilda qabul qilingan va 2021-yilda qayta ko‘rib chiqilgan mazkur qonun diniy tashkilotlar, jumladan, ta’lim muassasalari faoliyatining huquqiy asoslarini yaratadi. Mazkur qonunga ko‘ra, diniy ta’lim muassasalari davlat ro‘yxatidan o‘tishi hamda diniy bag‘rikenglik va davlat ishlariga aralashmaslik tamoyillariga amal qilgan holda faoliyat yuritishi shart.

O‘zbekiston hukumati “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” gi qonunda nazarda tutilgan huquqiy bazadan tashqari, diniy ta’lim muassasalarini akkreditatsiya qilish va nazorat qilish

tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ham chora-tadbirlar ko‘rdi. Mamlakatimizda diniy faoliyatni tartibga solish bilan shug‘ullanuvchi Din ishlari bo‘yicha davlat qo‘mitasi diniy ta’lim muassasalarini ro‘yxatga olish va akkreditatsiyadan o‘tkazish, ularning muayyan standartlarga javob berishi va qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat yuritishini nazorat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 23-avgustda qabul qilingan “Din sohasidagi ma’naviy-ma’rifiy, ta’lim ishlarini va faoliyatni yanada takomillashtirishda ijtimoiy ko‘mak va imtiyozlar berish to‘g‘risida”gi qarorida esa islom instituti va o‘rta maxsus islom bilim yurtlarida joriy etilgan ta’lim standartlari, o‘quv rejalarini hamda talabalarining qabul qilingan davlat me’yorlariga muvofiq diniy va dunyoviy bilimlar olayotganligini inobatga olib, mazkur o‘quv yurtlarining bitiruvchilariga beriladigan diplomlar davlat ta’lim hujjati sifatida e’tirof etilishi hamda bitiruvchilarga davlat oliy ta’lim tizimida o‘qishni davom ettirish huquqi berilishi nazarda tutilgan.

Diniy ta’lim faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 1-martdagi Diniy ta’lim muassasalarining faoliyatini lisenziyalash to‘g‘risidagi nizom va 2018-yil 31-maydagи qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, qayta ro‘yxatdan o‘tkazish va tugatish tartibi to‘g‘risidagi nizom bilan tartibga solinadi.

Nizom talablariga ko‘ra diniy ta’lim sohasida faoliyatni amalga oshirish uchun:

- O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga majburiy rioya etish;
- diniy fanlarning O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita bilan kelishilgan o‘quv konsepsiya, o‘quv rejalarini va dasturlariga muvofiq o‘qitilishini tashkil etish;
- voyaga yetmagan shaxslarni ularning irodasi, ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar (vasiyalar)ning xohishiga xilof ravishda o‘qitish;
- ta’lim jarayonida urush, zo‘ravonlik, prozelitizm va har qanday missionerlik faoliyati targ‘ib qilinishiga, mamlakat xavfsizligi va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, jamiyatning huquqiy va ma’naviy asoslari, fuqarolar tinchligi, millatlararo va dinlararo totuvlik buzilishiga, O‘zbekiston to‘g‘risida noto‘g‘ri axborotlar tarqatilishiga hamda uning tarixiy, madaniy va ma’naviy boyliklari buzib ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- diniy fanlarning tegishli diniy ma’lumotga va diniy tashkilotlarni boshqarish tegishli markaziy organining ruxsatnomasiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan o‘qitilishini tashkil etish va ularni davriy attestatsiyadan o‘tkazish;
- o‘quv jarayonida esa chet elda nashr etilgan tegishli lisenziyaga ega bo‘lgan adabiyotlardan foydalanish kabilar talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni (2017-yil 7-fevral), “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini

rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoyishi (2017- yil 15- avgust)ning “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish” deb nomlangan 5-yo‘nalish doirasida Diniy sohadagi davlat siyosati kontseptsiyasini ishlab chiqish nazarda tutilgan. Mustaqillik islom ma’rifatining rivoji uchun sharoit yaratdi. O‘zbekistonda dunyoviylik bilan diniylik o‘rtasida andoza sifatida qo‘llash mumkin bo‘lgan yangi nisbatning shakllanishi natijasida dinlararo bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikning ta‘minlangani, qolaversa, tabarruk zaminimizning azaldan umumjahon tamadduni markazlaridan biri bo‘lgani barchaga ayon.

Diniy tashkilotlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, qayta ro‘yxatdan o‘tkazish va tugatish tartibi to‘g‘risidagi nizomga ko‘ra diniy ta‘lim muassasalarini tashkil etish uchun markaziy boshqaruv organining diniy ta‘lim muassasasini tashkil etish, uning ustavini tasdiqlash va rahbar organlarini saylash (tayinlash) bo‘yicha ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan qaror nusxasi, diniy ta‘lim muassasasining davlat tilidagi ustavi nusxasi; diniy ta‘lim muassasasining rahbar organi a’zolari to‘g‘risidagi nizomda ko‘rsatilgan shakldagi ma’lumotlar taqdim etilgandan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib lisenziya asosida faoliyat olib borish huquqiga ega bo‘ladi. Diniy ta‘lim muassasalarida ta‘lim olishga umumiyligi o‘rtaligida muassasalarida uzluksiz tarzda, majburiy bo‘lgan o‘n bir yil davomida amalga oshirilgan umumiyligi o‘rtalimdan so‘ng ruxsat etiladi. Xususiy diniy ta‘lim berish qonun bilan cheklangan bo‘lib, diniy ta‘lim muassasalarida O‘zbekiston Respublikasida belgilangan davlat ta‘lim standartlari va talablariga muvofiq dunyoviy fanlarni o‘qitish lozimligi belgilangan. Jamoatchilik o‘rtasida diniy ta‘lim olishga bo‘lgan intilish yuqori bo‘lib, amaldagi diniy ta‘lim qamrovi aholi ehtiyojlarini qondira olmaydi. Bu esa yoshlar va turli aholi qatlamlarining ruxsat etilmagan tarzda (hujralarda) diniy ta‘lim olish bilan birga xorijiy mamlakatlardagi turli diniy ta‘lim muassasalarida ta‘lim olish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda.

Dinlardagi mazhab va yo‘nalishlarning turliligi, ayrim xorijiy mamlakatlarda dindan mafkuraviy maqsadlarda foydalanish holatlarining yuqoriligi, yoshlarning diniy dunyoqarashida azaliy diniy qadriyatlarga yetib bo‘lgan qarashlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Ayni paytda aholi o‘rtasida sof diniy qadriyatlarning mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetmaslik, turli yetib bo‘lgan qadriyatlarning qilmaslik holatlari uchramoqda. Dunyoda va mamlakatimizda ro‘y berayotgan voqeа-hodisalar, ijtimoiy-siyosiy vaziyatning tahlili diniy-ma’rifiy sohadagi faoliyat samaradorligini oshirishni va malakali kadrlar tayyorlashning yaxlit tizimini yaratishni taqozo etmoqda. Mana shunday talab va ehtiyojlardan kelib chiqib 2018-yil 16-aprelda O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi.

Farmon bilan yetakchi ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblangan O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi tashkil etilib:

- diniy va dunyoviy bilim berishga ixtisoslashgan islom va jahon sivilizatsiyasiga beba ho hissa qo‘sghan ajdodlarimizning boy madaniy merosini chuqur o‘rganish asosida yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish;

- dinni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadigan buzg‘unchi yot g‘oyalarning asl mohiyati va maqsadlari haqida aholining, ayniqsa, yoshlarning xabardorlik darajasini oshirish; jamiyatda milliy va diniy qadriyatlarimizga yot bo‘lgan g‘oyalarga nisbatan toqatsizlik muhitini shakllantirish;

- jamiyatda bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, tinchlik va totuvlikni, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta‘minlashda diniy-ma’rifiy soha vakillarining daxldorlik hissi va ishtirokini yanada oshirish;

- globallashuv sharoitida jamiyatimizdagи ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligi va e’tiqod erkinligiga tahdid tug‘dirishi mumkin bo‘lgan omillarni barvaqt aniqlash va oldini olishga qaratilgan axborot-tahliliy faoliyatni kuchaytirish;

- diniy va dunyoviy bilimlar uyg‘unligini rivojlantirish asosida ta’lim sifatini oshirish, diniy-ma’rifiy sohada malakali kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yaxlit tizimini yaratish kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilab berildi.[9]

Bundan tashqari, so‘nggi yillarda hukumat diniy jamoalar va yetakchilar, jumladan, diniy ta’lim bilan shug‘ullanuvchilar bilan muloqotga tayyorligini ko‘rsatdi. Bunday yondashuv hukumat va diniy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi munosabatlarning yanada ochiq va oshkora o‘rnatalishiga, shuningdek, ushbu institutlarning jamiyatdagи rolini yanada chuqurroq tushunishga olib keldi.

Milliy qonunchiligidiz tomonidan diniy ta’lim muassasalariga alohida e’tibor berilmoqda. Bunga misol sifatida so‘nggi yillar davomida ishlab chiqilgan “Diniy ta’lim muassasalarining faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risida nizom”, “Hadis ilmi maktabi faoliyatini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, “Toshkent islom universiteti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” Vazirlar Mahkamasi qarorlarini keltirsak bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, O‘zbekistonda diniy ta’lim muassasalarining huquqiy maqomi murakkab va rivojlanib borayotgan masaladir. Hukumat ushbu muassasalarini tartibga solish va nazorat qilish bo‘yicha muhim qadamlar qo‘ygan bo‘lsa-da, ularning to‘liq e’tirof etilishi va qonun doirasida himoya qilinishini ta‘minlash bo‘yicha hali ham ishlar qilinishi kerak. O‘zbekiston o‘zining islohot va modernizatsiya yo‘lida davom etar ekan, diniy ta’lim muassasalarining huquqiy maqomi va roli kelgusi yillarda ham muhim muhokama va rivojlanish mavzusi bo‘lib qolishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 22-avgustdagи 364-son qarori.
2. Inagamova M.M., Muhtorjonov A.U. O‘zbekiston Respublikasida diniy ta’lim muassasalarininig huquqiy asoslari. “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati va xalqparvar davlat barpo etishning huquqiy kafolati” Republican Scientific and Practical Conference. December 1-7, 2023. – B 256.
3. Rashidov F.T. O‘zbekiston Respublikasida diniy ta’lim va uning huquqiy asoslari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. December 2021. – P 333.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-y., 5-son, 227-modda.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining qarori, 28.10.1992 yildagi 497-son.
6. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004-y., 9-son, 106-modda.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.04.2018 yildagi PF-5416-son.
8. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son
9. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.07.2021-y., 03/21/699/0635-son.
10. Ўзбекистон Республикасининг Виҷdon эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисидаги қонуни 8-модда. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)